

Samarqand viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-noyabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

I.CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


2025-yil 1-dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 10 085 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 44 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 10 041 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 35 711,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 4 462,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 28 003,6 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 246,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)

2025-yil yanvar-noyabr



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2023-2025 yillar yanvar-noyabr, ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 884 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 40 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 844 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 27 779,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 14 773,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 % ni, viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 53,2 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Qo'shrabot (2,6 marta), Samarqand (149,4 %), Bulung'ur (94,2 %) tumanlari va Samarqand shahrida (135,8) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 581 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 570 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida umum ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 23 091,8 mlrd so'mga yetib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 74,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

[Ichki savdo aylanmasi](#)

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: N.Abduraimov Tel: +998712308000 (3040)	Ijrochi: Vakant Tel: +99866 235 14 42 e-pochta: info@samstat.uz	Manzil: 140100, Samarqand sh., U.Tursunov ko'chasi, 82
--	---	---	--